



Temur-Malik YAXSHIBOYEV,

Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: temurbek5777@gmail.com

GulDPI p.f.b.f.d. (PhD) M.Niyozov taqrizi asosida

CAREFUL EDUCATION IN THE FORMATION OF STUDENTS' CREATIVITY SKILLS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGY EDUCATION

Annotation

This article talks about careful education and its use and history in the formation of creativity skills of students in the process of technology education.

Key words: Creativity, creativity, critical, individual, collective, development, thoroughness, education, advanced, indifferent, person, human, analytical, goal, task, technical, lesson.

БЕРЕЖНОЕ ВОСПИТАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ, УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье говорится о бережном воспитании и его использовании и истории в формировании творческих способностей, учащихся в процессе технологического образования.

Ключевые слова: Творчество, творчество, критическое, индивидуальное, коллективное, развитие, основательность, воспитание, передовой, индифферентный, человек, человеческий, аналитический, цель, задача, технический, урок.

TEXNOLOGIYA TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA IJODKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA SINCHKOVLIK TARBIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnologiya ta'limgarayonida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda sinchkovlik tarbiyasi va uning qo'llanilishi, tarixi xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ijodiy, ijodkorlik, tanqidiy, individual jamoaviy, rivojlantirish, sinchkovlig, ta'limgarayon, ilg'or, loqayd, shaxs, inson, analitik, maqsad, vazifa, texnik, dars.

Kirish. Ta'limgarayonining maqsadi nafaqat bilim tizimini o'zlashtirish, balki o'quvchi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosini tashkil etuvchi ko'nikma va malakalar egallash orqali tajriba va ijtimoiy kompetensiyaga ega shaxsni shakllantirish hisoblanadi. Hozirgi kunda ijodkor, tashabbuskor, hamda serqirra shaxsni tarbiyalash, uni kamol toptirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'limgarayonida umumta'lum, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitishda ularning kasbiyo yo'nalgaligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu ishni amalga oshirishda o'quvchilarning maqsad va vazifalari e'tiborga olinishi lozim. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda kasbiyo ko'nikma, kasbiyo tajribani egallash uchun zarur bo'lgan qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu muammolar hamdo'stlik davlatlari olimlaridan T.N.Aleshina, A.P.Belyaeva, T.D.Kolpakova, M.I.Maxmutov, A.M.Novikovlarning hamda vatanimiz olimlaridan SH.S.SHaripov, A.N.Xudoyberganov, O'.Q.Tolipov, T.J.Ismoilov, K.Zayirov va boshqalarning ishlardira qaralgan. Mualliflar kasba yo'nalgalikni umumta'lum va umumkasbiy fanlar o'rtafiga fanlararo aloqadorlikning bir shakli yoki shaxsni kasba yo'naltiruvchi shaxsiy sifatlardan biri sifatida qaragan. Chunki, ana shunday sifatlarga ega bo'lgan kichik mutaxassisgina ishlab chiqarish uchun juda foydali hisoblanadi. Buning uchun esa, o'quvchi ijodkorlikka, shu jumladan, texnik ijodkorlikka qobiliyatli ekanligiga har doim ishonch hosil qilishi zarur va u har kuni o'z hayoti va ish faoliyatini mobaynida uchratadigan ob'ektlar mukammal emasligini va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda topilgan echimlardan amaliyotda foydalaniш zarurligini bilishi lozim. Bunday oddiy haqiqat esa o'quvchilarda nazariy ta'limgarayonida o'quv ustaxonalarda, so'ngra ishlab chiqarishda duch keladigan ishlab chiqarish vositalari (moslamalar, asbob-uskunalar, jinoxlar) ga nisbatan tanqidiy munosabatlar paydo bo'lishga olib kelish mumkin.

O'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashga oid turli metodik materiallarni tahlil etish asosida, bu jarayonda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga rioya qilish zarurligi aniqlandi.

1. O'quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqishni tarbiyalashni o'qishning birinchi kunidan boshlanishi lozim. Buning uchun esa, ularga har xil ishchi amallarda bajarish mumkin bo'lgan ijodiy tomonlarni oshib berish zarur.

2. O'qitish jarayonida guruhdagagi o'quvchilarini "kuchli", "kuchsiz" va "o'rta" guruhlarga ajratmaslik. Chunki, bu o'quvchida o'zining qobiliyati va ijodiy faolligi rivojlanishida "kuchsizlik" tomoni mavjudligini aniqlashga imkon bermaydi.

3. O'qituvchi o'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonida, agar ko'pchilik o'quvchilarda faollik va tajriba etishmasa, u holda qo'yilgan muammoni hal qilishga jamoaviy tajribani jaib etish.

4. O'quvchilarning mehnatga ongli munosabatini, aniq bilim va ko'nikmalarini egallash hamda texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonidagi ijodiy faolligini doimiy rag'battalantirib borish.

5. Ishlab chiqarish amaliyoti paytda o'quvchilariga texnologik operatsiyalarni bajarishning yangi usullarini ko'rsatish bilan birga, ularga bu usullar mukammal emasligini hamda bundan ham takomillashtirishga usullar mavjudligini tushuntirish.

6. O'quvchilarning individual faolligini murakkab bo'lmagan texnologik operatsiyalarni takomillashtirishga shaxsiy imkoniyatlarini yo'naltirish yo'li bilan rivojlantirish.

7. O'zida ijodkorlikni namoyon qila olmagan o'quvchilarga bajarayotgan

ishni osonashtiruvchi, mehnati sifati va samaradorligini oshiruvchi oddiy moslamalar yaratishga yo'naltirilgan texnik topshiriqlar berish.

8. Ijodiy faoliyatni faollashtirishga ishlab chiqarish sharoitlaridagi topshiriqlarga yangilik elementlarini kiritish bilan bog'liq o'ziga xos "qiyinchilik holati" yaratish yo'li bilan erishish.

9. O'quvchilarni o'zlarining ijodiy faolligini rivojlantiruvchi faoliyatga o'rgatish.

O'quvchilarda ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi shartlarga javob beruvchi topshiriqlar ishlab chiqarish zarur:

1) avval o'zlashtirilgan bilim va tajribalarni qo'llash uchun sharoit yaratish kerak;

2) topshiriqlar muammoli, ya'ni mos texnik yoki texnologik masala sifatida hal etilishi talab qilinadigan texnik muammoli vaziyatni saqlashi kerak. Bu shartlarning barchasini amaliy mashg'ulotlarda, uy ishlarini bajarishda va boshqalarda qo'llash mumkin.

Ma'lumki, o'qitishning asosiy tashkiliy shakli dars bo'lib, bu jarayonda aniq o'quv-tarbiyaviy masala hal etiladi. Dars o'quvchiga bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli ravishda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ularda bilimga qiziqish, faoliik, mustaqillikni shakllantiradi. Darslarda ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun esa quyidagi bir qator omillarni e'tiborga olish zarur.

1. O'quvchilarining yosh xususiyatlарини e'tiborga olish. Busiz maqsad va unga erishish motiv va vositalari o'zaro to'g'ri munosabatda bo'lmaydi. Ayniqsa, bunda faoliyat motivlari asosiy diqqatni talab etadi. Chunki, ular ishga qiziqishni, muammoli vaziyat yuzaga kelishini va maqsadga erishishni aniqlaydi.

2. Taklif etiladigan texnik topshiriqlarning tushunarligi. Topshiriqlarning murakkabligi o'quvchi ijodkorlik faoliyati jarayonining har bir bosqichi bilan qat'iy muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

3. O'quvchilarining individual va jamoaviy ijodkorlik faoliyatlarini birga qo'shib olib borish. U bunday faoliyat nafaqat umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarda, balki darsdan tashqari tashkil etiladigan ishlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Bu individual ishlarni jamoaviy ishlar bilan optimal ravishda birga qo'shib olib borish imkonini beradi.

4. Ijodkorlik jarayoni uzluksizligi. Amaliyot ko'rsatishicha, epizodik ijodkorlik faoliyatining samarasini juda kam. U aniq bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqish uyg'otish, ishni bajarish jarayonida bilish faoliyatini faollashtirish, hatto muammoli vaziyatning yuzaga kelishiga imkon berishi mumkin. Ammo, epizodiklik hech vaqt mehnatga ijodiy munosabatni rivojlantirishga, ijodkorlikka intilishga, ya'ni shaxsnинг ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga olib kelmaydi.

5. Ijodiy faoliyat natijaviyligi. O'quvchilar uchun mashg'ulotlarda bajariladigan ishning yakuniy natijasi ancha ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilar o'z oldiga qo'yilgan vazifalarini bajarishga intilishi, o'z mehnatining natijalariga shodlanmog'i lozim. Ijodiy faoliyat natijaviyligini nafaqat yakuniy natijaga munosabat, balki ijodiy topshiriqlarning bajarishning har bir bosqichiga xos munosabat sifatida qarash lozim.

Bu fikrlarni inobatga oлган holda o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning asosiy masalalari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, qobiliyatni rivojlantirish; texnik dunyoqarashni rivojlantirish va kengaytirish, keng tarqalgan mehnat qurollari bilan ishslash ko'nikmalarini takomillashtirish va malakalarini shakllantirish; konstruktiv fikrashi va o'z ijodiy fikrni rasm, chizma, maket va boshqalar orqali ifodalay olish ko'nikmasini shakllantirish; texnik ob'ekt qurilmalariga havas va qiziqishni rivojlantirish, qurilmalarni tahlil etishga intilish va takomillashtirishga hohish paydo qilish, yangi qurilmalar yaratish; takomillashtirilgan ob'ektlarni mustaqil ravishda aniqlash ko'nikmasini shakllantirish, oddiy texnik qurilmalar tayyorlash; texnikani takomillashtirish sohasida o'quvchilarining izlanuvchanlik faoliyatiga qiziqishini rivojlantirish.

Afsuski, ana shunday ko'z ilg'amas, oddiy "ikir-chikir"larda gap ko'p fikrimizni isbotlash uchun Nyutonning "olmasi"ni eslayslik. Nyutongacha ham qanchadan-qancha kishilar mevalarning daraxtdan uzilib erga tushishini necha bor ko'rishgan, lekin nega shunday degan savol bilan bu hodisaning sababiga qiziqishmag'an. Nyutonning sinchkovligi tufayligina ana shu oddiy tuyulgan hodisadan buyuk kashfiyot "Butun olam tortishish qonun" yaratildi. Deyarli barcha kashfiyotlar zamirda buyuk kishilarning sinchkovligiyu, jonini jabborga berib qilgan

mehnatlari yotgani ularning hayot yo'li sahifalaridan ma'lum. Jumladan, Eynshteyndan talanti haqida so'raganlarida "Menda hech qanaqa talant yo'q, bori-o'ta sinchkovli-gu xachirday o'jarlik xolos" degan edi.

Ilm fanning beqiyos rivojida muhim hisoblangan kashfiyotlar zamirda yuqorida ta'kidlanganidek alohida kishilarning sinchkovligi yotar ekan, hozirgi ta'lim tarbiya tizimida va ilg'or pedagogik texnologiyalarda iqtidorli yoshlarni va umuman yosh avlodni sinchkovlik ruhida tarbiyalashga nima uchun etarli e'tibor berilmaydi?

Sinchkovlikni bizningcha "Kishining tevarak-atrofidagi voqe-a-hodisa va narsalarning o'zi uchun (ba'zan hatto fan uchun ham) no'malum jihatlaridan ta'sirlanib, nega shunday deya e'tiroz bildirish"-deb ta'riflash mumkin. Kishida sinchkovlik tuyg'usi va e'tiroz o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi va shuningdek ilm fan tarraqqiyotida faqat sinchkovlikning o'zi ham etarli emas, noxush yoki chiroylar narsalar va hodisalar sababini to'g'ri ilmiy asosda baholash, noxushlarini bartaraf qilishga kirishish kishidan har tomonlama chuqr bilim, iqtidor va ijodkorlik mehnati talab qiladi. Shu ma'noda, sinchkovlikni hali iqtidorlikning nurli cho'qqisi tomon qo'yilgan birinchi va zaruriy qadam deyish mumkin xolos. Cho'qqini zabit etishdagi qiyinchilikni, insонlar yaratuvchilik mehnatini, ilm-fanning buyuk quadratini qadrildilar, jonkuyar, xullas har tomonlama barkamol chinakam iqtidorli kishilarni voyaga etkazish kabi muhim vazifani amalga oshirishda esa sinchkovlik tarbiyasi alohida o'rin tutishini qayta-qayta ta'kidlash joiz.

Sinchkovlik tarbiyasi shaxs rivojlanishini ta'minlashning ilmiy-asosi hisoblanishi bilan birga, sinchkovlik tushunchasining o'zi ham keng ma'noga ega. Uni narsa, voqe-a va hodisalarni jo'n kuzatish va ular haqida yuzaki umumiyl xulosaviy tushunchaga ega bo'lishdangina iborat deb, tor ma'noda tushunmaslik kerak. Biz hayotda uncha-muncha narsalarning sababini ko'r-ko'rona biladigan, uning ilmiy asosini bilishdan esa anche yiroq bo'lgan, so'zi boshqa, dili boshqa kishilarni ko'p uchratamiz. Ilg'or sinchkovlik qarashga moyillik bilan yuksak ilmiy dunyoqarash, kishi ruhiy dunyosining ajralmas bir xususiyatiga aylansagina hamda ular insomning har bir hatti-harakatida, fe'l-atrofida, mehnatga, atrof-voqe-a va hodisalarga ilmiy-ijodiy yondoshuvida, aks etib tursagina, haqiqiy sinchkovlik tarbiyasi haqida gap bo'lishi mumkin. Sinchkovlik ijodkorlikdan mahrum bo'lgan ta'lim, quruq hayot uslubiga moslashuvchi loqaydlikni keltirib chiqarishdan tashqari, yoshlarning qimmatli sifati-bilimga ishtiyoqini ham so'ndiradi.

Shu ma'noda sinchkovlik tarbiyasining asosiy vazifasini o'quvchilarda tevarak atrofdagi voqe-a-hodisalarni, badiyi kitob, darslik va boshqa manbalarda, narsa va buyumlarda uchraydigani xush-noxush holatlarni payqash, qadrlash kabi xislatlarni shakllantirish va tarbiyalashdangina iborat bo'imasdan, balki bunday holatlар salbiy oqibatlariga murosasiz munosabatda bo'lib uni bartaraf qilishda faol ishtirot etuvchi buyuk kelajagimiz ongli va jonkuyar quruvchilarini voyaga etkazishdan ham iboratdir.

Sinchkovlik tarbiyasi insonda e'tiroz tuyg'usini uyg'otish hissi bilan bog'liq bo'lib, bu tug'yonni, o'z navbatida, har bir shaxsnинг ehtirosi ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi quadratli vositani ko'zda tutadi. Demak, sinchkovlik tarbiyasining markazida buyuk harakatlantiruvchi kuch - ilmiy e'tiroz va extiros tuyg'ulari yotadi. Borki kashfiyot va ixtirolarning nega shunday degan ilmiy e'tirozga nima qilmoq kerak degan jo'shqin ilmiy extirosi javob izlash bilan yaratilganligi kashfiyotlar tarixidan ma'lum.

Ta'limda sinchkovlik tarbiyasining ahamiyati - uning voqe-a va hodisalar noxushligi sababini chuqr idrok etishga yordam berishidan tashqari, uni bartaraf qilish uchun, shaxsn'i noma'lumliklar bo'ylab yurishga da'vat etishi bilan ham g'oyat behabodir.

Kishi tashqi ko'rinishidan qanchalik kelishgan bo'lmasin, agar u loqayd bilimsiz bo'lsa, ijodiy mehnatdan qochsa, u tekino'rlikka moyil bo'lib, fikrlashining bachkanaligi ham shundoqqina ko'r-nib turadi, bundaylardan hech qachon buyuk kishilar chiqmaydi.

Buyuk ilmli kishilarni yo'q mamlakat esa jonsiz jasadning o'zginasidir. Bu haqda buyuk Fransuz faylasuvi Sen Simonning "Agar Fransiyada iqtidorli olimlar 50 nafardan kam bo'lganda u

jonsiz jasadga aylanib qolar edi”, degan so‘zi g‘oyat ibratlidir. Shunday ekan, yoshlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashda loqaydilikdan shunchaki ma’naviy nafratlanish tuyg‘ularini emas, balki hissiy nafratlanish tuyg‘ularini ham singdira borish juda muxim. Zero ular, dangasa, bachkana, landovur loqaydlarni, hushyor va iqtidorli kishilar orasida sanqib yurgan buyuk kelajagimiz oydin yo‘lidagi xira dog‘lar, ko‘zga ko‘rimmas to‘siqlar deb biladigan bo‘lishsin.

Sinchkovlik tarbiyasi - faqatgina tabiat hodisalari yoki boshqa holatlar sir-asrорларини bilishda emas, balki odamzod ruhiyati va aql zakovati, go‘zalligi sirlarida ham yaqqol namoyon bo‘lishidir. Sinchkov tarbiyali kishilar ko‘chada, teatrda, avtobusda, jamoa joylarida hamisha o‘zining ilg‘or xulqi, did bilan kiyinishi, o‘zini tuta bilishi, muomala madaniyatni va harakatlaridagi aniqligi, sezgirligi bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Ular loqayd kishilar uzoq yillarda davomida qiyinalib, arang bajarishi mumkin bo‘lgan yoki umuman, hech qachon eplay olmaydigan ishlarni mutlaqo qiynalmasdan, tez va puxta uddalay olishi bilan fan, texnika va madaniyat rivoji uchun beqiyos hissa qo‘shishga qodir kishillardir.

Shunday ekan, hatto sinchkovlik tarbiyasini bolalar bog‘chasida bolanligi yoshligidan boshlash kerak. Chunki oila va bog‘cha dunyoqarashni shakkantirishning birinchi maktabidir. Ayniqsa bolalarning hadeb hodisalar sababini so‘rayverishiga jiddiy e’tibor berish kerak, chunki ular juda sinchkov bo‘lib, har bir narsaning sababini bilishga qiziqadilar. Maktabda esa ularning ilmiy e’tiroz va ehtiroslari, bilimlar olamiga kirishi, undan bahramand bo‘lishi uchun barcha sharoitlar bo‘lishi zarur.

Qachonki, shaxsning o‘zligini anglashi va bag‘ishlashi ziarati haqida so‘z yuritganimizda, avvalo kishidagi jamiyat uchun o‘ta muhim jihat-sinchkovlikning ahamiyatini ba‘zan nazaridan chetraqda qoldiramiz.

O‘quvchida, unday bo‘lsa energiya saqlanishining umumjahon qonuni buzilmaydimi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bunga javob tariqasida aytish mumkinki, yuqoridaq inson baxti ta‘rifi (formulasi)da, so‘z xususan kishining ichki imkoniyati (potensial) va umuman butun insoniyatning ichki sinchkovligi, aynan uning zahiradagi mudrab yotgan imkoniyatlarini uyg‘otib, bilimga chanqoqlik va “qaynash” holatiga o‘tkazishning psixologik va pedagogik jihatlarini ochib berish orqali organidan ko‘ra ko‘proq bera olishiga erishish ko‘zda tutilmoida.

Ana shu savolga javob yoki biz ta‘riflagan organidan ko‘ra ko‘proq berish qonunini hech bir ikkilanmasdan insoniyat evolyusiyasining bitmas tunganmas oltin xazinasi deyishimiz mumkin, aynan ana shunday sinchkov ijodkor kishilar hisobigagina jamiyat har doim olg‘a harakatlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. – Toshkent. 2013. - B. 64.
2. Abduquddusov O.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005. – 160 b.
3. To‘raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakkantirish. Ped. fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. O‘zMU, 2018. -B. 27.
4. Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.
5. Шутенко, А.В. Методы проведения учебных занятий с использованием средств информационных и коммуникационных технологий /А.В. Шутенко.- (<http://pedsovet.su/publ/ 26-1-0-841>). 05.04.2010.
6. Boymatov, N. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF IMPROVING THE CONTENT OF CORPORATE CULTURE IN THE PROCESS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION. Science and Innovation, 1(8), 538-542.
7. ABDUFATAYEV, S. (2024). FANLARARO INTEGRATSİYA–TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINING ASOSIY OMILI. News of UzMU journal, 1(1. 1), 31-35.

Oldin so‘z yuritilan Nyutonning “olmasi”ga qo‘shimcha yana Arximedning “vannasi” Nils Finzen (nobel mukofoti egasi) ning “mushugi” yoki “tila qo‘ng‘izi”ni sinchkovlikning yorqin mahsuli sifatida misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Nils Finzen oftobda yotgan mushukning ustiga soya tushganda yana oftob tushib turgan joyga borib yotganini sinchkovlik bilan kuzatadi. Xuddi shu hodisaning davomini bahor kunlarida ko‘prik ustida xayol surib turganda kuzatadi, loyqa suvdagi xas-xashak ustida jon saqlab kelayotgan tilla qo‘ng‘iz hadeb jon holatda quyosh tomonga burilar, suv oqimi esa yana uni o‘zgartirib oqizar edi.

Ana shu hodisalarga sinchkovlik orqali yoshdoshib u kishilarni quyosh nuri bilan davolash usuliga ilk bor asos solgan edi. Olganidan ko‘ra ko‘proq berish qonuni mohiyatini ochib berishga yuqoridaq misol etarli deb o‘ylaymiz. Chunki una mabkatabda bu haqidagi hech bir bilim berilmagan.

Aytilganlarni ta‘lim tizimiga joriy etadigan bo‘lsak, uni obrazli qilib quyidagi holatlarga qiyoslash mumkin.

Birinchi holat. Sinchkovlik ruhida tarbiyalashni-o‘quvchingan baland cho‘qqi sari o‘nqir-cho‘nqir, so‘qmoqli, tikloni, egri-bugri yo‘llar orqali borishga undashning pedagogik va psixologik jihatlarini ochib berishdan izlamoq zarur.

Ikkinchi holat. Bu holatni hozirgi o‘quvchi va ilmiy ishlar tizimida ko‘proq kuzatilmoqda, ya’ni yuqori cho‘qqiga osma yo‘l orqali osongina borishga qiyoslash mumkin.

Ta‘lim tizimida o‘quv reja va dasturlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashni e’tiborga olmasdan boshqarish nafaqat yoshlarning va hatto yosh mutaxassislarning sifatli bo‘lishidagi jiddiy kamchiliklarga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Bir so‘z bilan aytganda loqayd kishilar (ayniqsa ta‘lim tizimida) uning o‘rnida bo‘lgan sinchkovlarga nisbatan jamiyatga o‘rtacha uchdan bir hissa kam foyda keltiradi, buni davlat miqyosidagi masshtabga ko‘paytirilsa, uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashning naqadar dolzarb muammoni ekanligi ayon bo‘ladi.

Shuni ta‘kidlashni istar edikki, insonlarning barchasiga ko‘z, qulqoq, tafakkur ato etib, uning olam go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishiga imkon berdi. Ammo inson ko‘zi, qulog‘i va miyasi qancha murakkab tuzilgan bo‘lmasin, ularni mukammal, bekamu-ko‘st deb bo‘lmaydi. Ko‘zimiz o‘tmaydigan, qulog‘imiz eshitmaydigan, qo‘limiz etmaydigan, tafakkurimiz ojizlik qiladigan voqeа, hodisa va narsalar shu qadar ko‘pki, ularni sanab sanog‘iga etish qiyin ularni faqat o‘ta sinchkovlik va chuqrilimiz izlanishlar orqali idrok qila olamiz.